

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 3 (15)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduvoidova Ruxshonaxon Akramjon qizi SHAYBONIY HUKMDORLARINING BIRINCHI VA OXIRGI BIRLASHTIRGAN JANG – JOM JANGI	5
2	Abdullayev Akmaljon Hasanboy o‘g‘li MANG‘ITLAR SULOLASI HUKMDORLARINING TASHQI QIYOFASINI TIKLASHDA SUN‘IY IDROKNING IMKONIYATLARI	10
3	Адилов Абдор Анварович ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ (НЭП) ВА СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ ДИНИЙ СИЁСАТИ ТАРИХИДАН	16
4	Бабаджанов Хасан Бахтиёрлович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОН ЁҒ-МОЙ САНОАТИ	27
5	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССРДА БУҒДОЙ НАВЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА ИЗЛАНИШ ИШЛАРИ ТУҒРИСИДА	36
6	Габриэльян Софья Ивановна ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ИРАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА	43
7	Дорошенко Татьяна Ивановна ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ТУРКЕСТАНЕ В ГОДЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ	53
8	Ishanxodjayeva Zamira Raimovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKSTON XOTIN-QIZLARINING IQTISODIY HAYOTDAGI ISHTIROKI (TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)	62
9	Jabbarova Iqbol Xo‘jamuratovna SUV XO‘JALIGINI BOSHQARISHDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	71
10	Kimsanova Ruxshona Xayrulla qizi SEVINCHIXO‘JAXON VA KELDI MUHAMMADXON DAVRIDA TOSHKENT HUKUMRONLIGI	77
11	Mamataliyeva Arofatxon Yuldashali qizi O‘ZBEK MILLIY OSHXONASI VA PALOV AN‘ANASINING MILLIY BREND SIFATIDA SHAKLLANISHI	85
12	Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРИНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	91
13	Musayev Azizbek Baxridinovich MANBALARDA XVII ASR FARG‘ONA VODIYSINING IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI AKS ETISHI	103
14	Nazarov Xumoyun Alisherovich MARKAZIY OSIYO QADIMGI JAMIYATLARI TARAQQIYOTIDA IQLIMIY OMILLAR VA LANDSHAFT TRANSFORMATSIYASI	110
15	Нарбеков Абдикамил Вафаевич ВОПРОСЫ АВТОХТОННОСТИ УЗБЕКОВ В ТУРКЕСТАНЕ	120
16	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI “JIZMONSOY” MFY.DAN TOPGAN TANGALAR XUSUSIDA	126

17	Очилдиев Файзулла Бабакулович XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИДА ШАРҚИЙ БУХОРОДА БОШҚАРУВ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН	144
18	Palvanov Hikmatmatjon Axmatjonovich XORAZM VONASI ANTIK DAVRI METALL HUNARMANDCHILIGINING BA'ZI XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHAZALAR	152
19	Солиев Махмуджон Махамаджонович ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАҚСИМОТИНИНГ ЁПИҚ ТИЗИМИ ИШЧИЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА: ИШЧИ ТАЪМИНОТИ БЎЛИМЛАРИ ФАОЛИЯТИ (1941–1945 йй.)	159
20	Tolibjonov Azizjon Tolibjonovich XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR DAVLATI VA ABBOSIYLAR XALIFALIGI O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR (OTSIZ MAKTUBLARI MISOLIDA)	167
21	Usarov Umid Abdimavlyanovich ROSSIYA IMPERIYA SENATINING A'ZOSI, GRAF K.K. PALEN BOSHCHILIGIDA TAFTISH KOMISSIYASI HISOBOTLARIDA TURKISTON O'LKADAGI YER-SUV MUNOSABATLARINING AKS ETTIRILISHI	174
22	Xakimov Adhambek Ahmadjon o'g'li XIV ASRNING 50-70 YILLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY VAZIYATNI O'RGANISHDA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARINING O'RNI	184
23	Xolikulov Axmadjon Boymaxammadovich AMIR HAYDAR HUKMRONLIGI YILLARIDA BUXORO – XIVA MUNOSABATLARI	191
24	Холикулова Шахноза Боймухамматовна ЧИРЧИҚ КИМЁГАРЛАР ШАҲАРЧАСИНИНГ ҚУРИЛИШИ ТАРИХИ	200
25	Юлдашева Шохсанам Юнусали кизи ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕЖПАРЛАМЕНТСКИХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА И ТУРЦИИ В 2017-2026 ГОДАХ	207
26	Yunusova Xurshida Erkinovna MAMLUKAT QISHLOQ XO'JALIGIDA ISLOHOTLARNING BOSHLANISHI VA UNING MUAMMOLARI	214

Nazarov X.A.

«Arxeologiya va etnologiya» kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

O'zbekiston Milliy universiteti

humoyunjon1992@gmail.com**MARKAZIY OSIYO QADIMGI JAMIYATLARI TARAQQIYOTIDA
IQLIMIY OMILLAR VA LANDSHAFT TRANSFORMATSIYASI****ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Markaziy Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar tarixiy taraqqiyotida iqlimiy o'zgarishlar, neotektonik jarayonlar, gidrografik tarmoq dinamikasi hamda landshaft transformatsiyasining madaniy moslashuvlarga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda pleystotsen va golotsen davrlaridagi ekologik sharoitlar, arxeologik yodgorliklarning joylashuvi, qadimgi konchilik va metallurgiya markazlari, neolit va bronza davri xo'jalik-madaniy tiplarining shakllanishi, shuningdek, ko'chmanchi jamiyatlar siyosiy faolligining paleoiqlimiy omillar bilan bog'liqligi ko'rib chiqiladi. Maqolada tabiiy muhit va inson faoliyati o'rtasidagi o'zaro ta'sir Markaziy Osiyo sivilizatsion jarayonlarini tushuntirishda muhim ilmiy kategoriya sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, paleoekologiya, golotsen, pleystotsen, aridizatsiya, neotektonika, qadimgi o'zanlar, neolit, bronza davri, ko'chmanchi jamiyatlar, madaniy moslashuv.

KIRISH

Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda tabiiy-geografik muhit, iqlimiy tebranishlar, suv resurslari va landshaft dinamikasining inson jamiyatlari taraqqiyotiga ta'sirini aniqlash muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mintaqaning cho'l, dasht, tog'oldi va voha landshaftlari qadimdan insonning xo'jalik faoliyati, migratsion yo'nalishlari, ishlab chiqarish shakllari hamda madaniy aloqalarining shakllanishida asosiy omillardan biri bo'lib kelgan.

Markaziy Osiyo hududi pleystotsen va golotsen davrlarida keskin ekologik o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Arxeologik kartalashtirish ishlari Janubiy Qozog'iston, Sharqiy Kaspiybo'yi, Janubiy Turkmaniston va Qizilqum hududlarida hozirgi arid va giperarid zonalarda joylashgan ilk paleolit manzilgohlarini aniqlagan. Bu holat ilk va o'rta pleystotsen bosqichlarida mazkur hududlarda hozirgiga nisbatan qulayroq tabiiy sharoit mavjud bo'lganini ko'rsatadi [1; 2; 3].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Markaziy Osiyoda qadimgi jamiyatlarning xo'jalik-madaniy rivojlanishi faqat ijtimoiy yoki siyosiy omillar bilan emas, balki iqlimiy tebranishlar, suv havzalari holati, o'zanlar dinamikasi, yaylov resurslari va foydali qazilmalar joylashuvi bilan ham bevosita bog'liq bo'lgan. Shu sababli mintaqa tarixini tarixiy-ekologik va arxeoekologik yondashuv asosida o'rganish qadimgi madaniyatlarning shakllanishi, inqirozi va transformatsiyasini yanada chuqurroq tushuntirish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Markaziy Osiyo tarixiy taraqqiyotida iqlimiy o'zgarishlar, neotektonik siljishlar va landshaft transformatsiyalarining inson jamoalari xo'jalik faoliyati, madaniy moslashuvi, migratsiyasi hamda siyosiy tuzilmalari shakllanishiga ta'sirini tahlil qilishdan iborat.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Markaziy Osiyoning qadimgi tarixida iqlimiy va ekologik omillar insonning makoniy joylashuvi hamda xo'jalik faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Arxeologik kartalashtirish natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda arid va giperarid landshaftlar sifatida tavsiflanadigan ayrim hududlarda ilk paleolit davrida inson yashashi uchun nisbatan qulay ekologik sharoit mavjud bo'lgan. Janubiy Qozog'iston, Sharqiy Kaspiybo'yi va Janubiy Turkmaniston hududlaridagi ilk paleolit manzilgohlari mazkur davrda bu zonalarida produktiv va ekologik jihatdan barqaror ekotizimlar shakllanganini ko'rsatadi [1; 2; 3]. Shunga o'xshash dalillar Sharqiy Turkiston va Gobi hududlari bo'yicha ham qayd etilgan bo'lib, bu joylarda arxantroplarning bugungi ekstremal landshaftlar sharoitida yashaganligi aniqlangan [4; 5].

Mustye va yuqori paleolit bosqichlari bilan bog'liq jarayonlar Vyurm muzlanishi davrida yuz bergan iqlimiy-ekologik siljishlar bilan bevosita bog'liqdir. Bu davr arxeologik materiallari asosan tog'oldi va o'rta tog' zonalarida, dengiz sathidan 700–1500 metr balandliklarda jamlangan. Mazkur holat yuqori tog' hududlarining muzlanishi, ochiq dasht landshaftlarida esa mavsumiy iqlimiy kontrastlikning kuchayishi bilan izohlanadi [6]. Bioproduktivlikning pasayishi va ochiq dashtlarda trofik degradatsiyaning kuchayishi inson populyatsiyalarining yashash joylarini qayta tanlashiga sabab bo'lgan.

Golotsen davri Markaziy Osiyo landshaftlarining postglyatsial barqarorlashuv bosqichi sifatida alohida ahamiyatga ega. Bu davrda tekisliklarning sekin ko'tarilishi, ayniqsa Qizilqum hududlarida aridizatsiya jarayonining kuchayishi, suv resurslarining qayta taqsimlanishi hamda ekologik nishalarning o'zgarishi kuzatilgan. Kech pleystotsendan boshlab rivojlangan ushbu jarayonlar Amudaryo va Sirdaryo o'zanlari dinamikasiga ham ta'sir ko'rsatgan [7].

Kosmik zondlash va paleogidrologik tadqiqotlar Kaspiy tomonga yo'nalgan qadimgi allyuvial o'zanlar mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Pleystotsen oxirigacha mazkur daryolar ehtimol yagona kenglik yo'nalishidagi oqim tizimini tashkil etgan. Keyinchalik Sharqiy Kaspiybo'yi hududining tektonik ko'tarilishi suvayirg'ichlarning shimolga — Orol botig'i tomonga siljishiga sabab bo'lgan. Natijada bosh daryolarning hozirgi meridional oqim yo'nalishi shakllangan. Bu jarayon cho'kindi to'planishi rejimi, qayir ekotizimlari va xo'jalik faoliyati lokalizatsiyasini o'zgartirgan [8].

Markaziy Qizilqum hududlaridagi qadimgi o'zanlar haqidagi arxeologik va geologik ma'lumotlar ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu o'zanlar tektonik yoriqlar va sinklinallar bo'ylab yo'nalgan bo'lib, ularning atrofida tarixdan oldingi konchilik izlari saqlangan tub jins chiqindilari aniqlangan. Chaqmoqtosh, mis, qalay, temir, firuza va oltinning tarixdan oldingi qazib olish joylari geologik chiqindilar bilan bog'liq bo'lgan. Bronza davri metallurgiya markazlari esa

Sirdaryoning qadimgi, hozirda qurib qolgan o‘zanlariga yaqin hududlarda joylashgan. Bu holat suv resurslari va mineral xomashyo manbalari o‘rtasidagi bog‘liqlik qadimgi ishlab chiqarish markazlari lokalizatsiyasida muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi [9].

Neolit plyuviali Markaziy Osiyo tarixida muhim ekologik burilish bosqichi bo‘lgan. Miloddan avvalgi VII–V ming yilliklardagi nam davr arid zonalarida suvlanishning ortishi, o‘simlik qoplamining kengayishi va o‘troq jamoalar rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratgan. Bu jarayon Shimoliy Afrikadan Sharqiy Osiyogacha bo‘lgan keng arid hududlarni, jumladan O‘rta Osiyo va Gobini ham qamrab olgan [10]. Janubiy Gobidagi neolit yodgorliklari dehqonchilik va ovchilikka asoslangan barqaror manzilgohlarning mavjudligini ko‘rsatadi. Bunday manzilgohlar faqat vaqtinchalik gumidizatsiya va suv rejimi barqarorlashuvi sharoitida shakllanishi mumkin edi [11].

Neolit iqlimiy optimumi fonida Amudaryo va Sirdaryo havzalarida xo‘jalik-madaniy moslashuvning ikki asosiy modeli shakllangan. Birinchisi — Kopetdog‘ tog‘oldi hududlari va barqaror agroiklimiy sharoit bilan bog‘liq bo‘lgan Joytun madaniyati. Ikkinchisi — dasht va cho‘l zonalarida tarqalgan ovchi, baliqchi va ilk chorvador jamoalarning Kaltaminor madaniyatidir. Ushbu ikki model Markaziy Osiyoda tabiiy sharoitlarning xilma-xilligi xo‘jalik strategiyalarining ham turlicha shakllanishiga olib kelganini ko‘rsatadi.

Oyoqog‘itma ko‘p qatlamli yodgorligidan olingan arxeozoologik ma‘lumotlar miloddan avvalgi IV ming yillik oxiri — III ming yillik boshlariga oid asosiy uy hayvonlari majmuasi — yirik shoxli qoramol, qo‘y, echki va tuyening xonakilashtirilganini qayd etadi. Iqlim aridizatsiyasi kuchaygani sari tuya qoldiqlarining ulushi ortib borishi esa qurg‘oqchilikka chidamli hayvon turlaridan foydalanishga qaratilgan adaptiv siljish sifatida talqin qilinadi [12].

Sharqiy Kaspiybo‘yi hududidagi Jebel neolit majmuasi ham mintaqadagi madaniy aloqalar tizimini tushunishda muhim o‘rin tutadi. To‘rt stratigrafik qatlarga ega ushbu majmua janubiy Kaspiybo‘yi hududlari bilan madaniy va ehtimol demografik aloqalarni ko‘rsatadi. Uning morfologiyasi neolit davri almashinuv tizimlarida arxaik dengiz yo‘llaridan foydalanilgan bo‘lishi mumkinligini anglatadi [13].

Iqlimiy optimum yakunlanishi va subboreal davrga o‘tilishi bilan yangi sharoitlarga moslashgan eneolit madaniyatlari shakllana boshlaydi. Janubiy Turkmaniston va Zarafshon vodiysida rivojlangan iqtisodiyot va kulolchilikka ega Anov madaniyati tarqaladi. Qozog‘iston va Janubiy Sibir dashtlarida esa Yamnaya va Afanasyevo doiralariga mansub chorvador-ko‘chmanchi madaniyatlar paydo bo‘ladi. O‘rta Zarafshondagi Afanasyevo topilmalari aridizatsiya ta‘sirida ularning areali kengayganini ko‘rsatadi [14].

Bronza davridan boshlab muhitga antropogen ta‘sirning kuchayishi kuzatiladi. Metallurgiya, hunarmandchilik va konchilikning rivojlanishi landshaftlarning keng miqyosda transformatsiyalanishiga olib kelgan. Markaziy Qizilqumning hozirgi arid zonalarida mis, qalay va firuza konlari o‘zlashtirilgan. Keyingi tarixiy bosqichlarda, ayniqsa o‘rta asrlarda savdo va hunarmandchilikning rivojlanishi

bilan kumush qazib olish keskin ortgan, Ohangaron havzasida esa yirik miqyosdagi konchilik faoliyati va unga tegishli infratuzilma izlari qayd etilgan [15].

Janubiy O'rta Osiyoda miloddan avvalgi IV ming yillikdan boshlab Anov–Nomozgoh majmualarida dastlabki irrigatsiya inshootlari paydo bo'ladi. Bu esa sug'orma dehqonchilik, ijtimoiy tashkilot va demografik barqarorlik rivojlanishiga asos bo'lgan. Mintaqa voqea sivilizatsiyalari tarixi sug'orish tizimlarining takomillashuvi bilan chambarchas bog'liqdir [12]. Demak, suv resurslari ustidan nazorat faqat xo'jalik masalasi emas, balki ijtimoiy tashkilot, mehnat taqsimoti va markazlashuv jarayonlarining ham muhim sharti bo'lgan.

Arxeologik materiallar Chust madaniyatining Farg'onaga kirib borishi hamda Janubiy Uralbo'yi hududlaridan andronovlik guruhlarining ekspansiyasini ko'rsatadi. Bu jarayonlar madaniy transformatsiya, etnik aloqalar va xo'jalik strategiyalarining yangilanishi bilan kechgan [17]. Bunda iqlimiy sharoit, yaylov resurslari va metallurgik xomashyo manbalarining joylashuvi muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Golotsen davridagi iqlimiy dinamika Orol-Kaspiy mintaqasida termogidrologik jarayonlarning murakkab va siklik xususiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi. Taxminan 10 300 yil avval sodir bo'lgan isish yillik harorat amplitudasining pasayishi va yog'ingarchilikning ko'payishi bilan kechgan. Golotsenda boreal, atlantik va subboreal termik maksimumlar ajratiladi. Ular sovuq va aridizatsiya fazalari bilan almashinib turgan. Ayniqsa, atlantik-subboreal burilish, ya'ni taxminan 5000–4500 yil avvalgi davr yanada quruq va kontinental iqlimga olib kelgan hamda qadimgi jamiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasida tizimli siljishlarni yuzaga keltirgan [18].

Lyavlyakan gumid fazasining yakunlanishi Hind vodiysidan Kopetdog'gacha bo'lgan keng hududda sivilizatsion inqiroz bilan bog'liq jarayonlarni yuzaga keltirgan. Arxeologik jihatdan Xarappa urbanistik tizimining qisqarishi, Janubiy Turkmaniston, Shimoliy Eron va Afg'onistondagi qadimgi dehqonchilik madaniyatlarining tanazzuli qayd etiladi [18]. Dehqonchilikka asoslangan jamiyatlar o'sib borayotgan aridlik sharoitida moslashuv qobiliyati yuqoriroq bo'lgan harakatchan chorvador guruhlar bilan raqobatga kirishgan.

Antik yozma manbalar ham landshaft va iqlim sharoitlarining tarixiy jarayonlarga ta'sirini ko'rsatadi. Arrian va Kvint Kurtsiy Ruf Aleksandr Makedonskiyning Markaziy Osiyo orqali yurishlari, hozirgi Eron va Baqtriyaning qurg'oqchil hududlaridan o'tish jarayonidagi marshrutlar hamda logistika qiyinchiliklari haqida ma'lumot beradi [19; 20]. Bu ma'lumotlar arxeologik dalillar bilan birgalikda landshaft aridligining harbiy yurishlar, ta'minot tizimi va siyosiy nazorat imkoniyatlariga ta'sirini rekonstruksiya qilish imkonini beradi.

Ko'chmanchi jamiyatlar tarixida ham iqlimiy fluktuatsiyalar muhim o'rin tutgan. Shimoliy Qora dengizbo'yidan Ordos platosigacha cho'zilgan Yevrosiyo dasht yoyi iqlimiy tebranishlarga nihoyatda sezgir hudud hisoblanadi. Namlanish to'liqlari dashtlarning janubga kengayishini va ko'chmanchi iqtisodiyotlar rivojlanishini rag'batlantirgan bo'lsa, aridizatsiya cho'llarning oldinga siljishi, yaylov resurslarining qisqarishi va migratsion bosimning ortishiga olib kelgan [21; 22].

L.N. Gumilyov ko'chmanchi davlatchilikning uchta makrobosqichini ajratadi: skif-sarmat-xunn bosqichi, turkiy bosqich va mo'g'ul bosqichi. Ushbu bosqichlarning har biri mobillik, harbiy-siyosiy tashkilot va geosiyosiy faollikning kuchayishi bilan tavsiflangan. Biroq iqlimiy qurg'oqchiliklar ko'chmanchi jamiyatlarning hududiy ekspansiyasi va barqarorligini cheklab turgan [21].

Xunn ittifoqi tarixida bu jarayon yaqqol namoyon bo'ladi. Xitoyga qarshi muvaffaqiyatli yurishlarga qaramay, xunlar o'troq hududlarda uzoq muddatli kolonizatsiyani amalga oshirmaganlar. Milodiy I asrdagi qurg'oqchilik ularni keng ko'lamli migratsiyaga majbur qilgan: dastlab yuqori Xuanxe hududiga, keyinchalik Yettisuv, Janubiy Ural va Volgabo'yiga ko'chish jarayonlari yuz bergan. IV–V asrlarda iqlimiy produktivlikning tiklanishi dashtlarning qayta o'zlashtirilishi va VI asrda Turk xoqonligining shakllanishi uchun sharoit yaratgan [22].

Markaziy Osiyoda namlanishning siklik xususiyati Atlantika siklonlari trayektoriyalariga bog'liq bo'lgan geteroxron model orqali ham izohlanadi. V.N. Abrasovga ko'ra, bu trayektoriyalar taxminan 1300 yillik davriylik bilan tebranib turgan. Frontning janubiy yo'nalishi O'rta Osiyo va Shimoliy Eronga yog'ingarchilik olib kelib, Orol va Balxash havzalarining suv bilan ta'minlanishini kuchaytirgan. Front shimolga siljiganida esa namlanish Sharqiy Yevropada jamlanib, Markaziy Osiyoda aridizatsiya kuchaygan [23].

Gidrologik o'zgarishlar Kaspiy dengizi sathi haqidagi ma'lumotlar bilan ham tasdiqlanadi. VI asrda qurilgan Derbent devorining hozirgi vaqtda qisman suv ostida qolganligi antik davrda dengiz sathi pastroq bo'lganini ko'rsatadi. Kaspiy dengizining maksimal transgressiyalari XIII asrga to'g'ri keladi. Bu holat quyi Volgabo'yida xazar madaniyatining yo'qolishi va Volga deltasi hududining suv ostida qolishi bilan mos keladi [24].

Nomadik jamiyatlarning siyosiy tashkiloti ham ekologik muhit bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. I.V. Yerofeyeva tomonidan XVII–XIX asrlardagi qozoq xonliklari misolida o'rganilgan ma'lumotlar ko'chmanchi va o'troq hokimiyat modellari o'rtasidagi farqni ko'rsatadi. Vertikal byurokratik imperiyalardan farqli ravishda, qozoq davlatchiligi urug' tuzilmalari va hududlardan mavsumiy foydalanish orqali amalga oshirilgan patronaj mexanizmlariga tayangan [25].

N.E. Masanov ta'kidlaganidek, ko'chmanchilarda qat'iy belgilangan hudud g'oyasi mavjud bo'lmagan. Ularning makoniy identikligining asosi mavsumlar bo'yicha rotatsion yer foydalanishni belgilovchi yaylov holati hisoblangan [26]. Shuning uchun ko'chmanchi jamiyatlarda hokimiyat ko'proq shaxsiy va guruhlararo munosabatlarga asoslangan bo'lib, muayyan hududga qat'iy bog'lanmagan. Bu holat o'troq imperiyalarning hududiy-ma'muriy mantig'i bilan ziddiyatga kirishgan.

Iqlimiy fluktuatsiyalarni chorvador va nomadik madaniyatlarning shakllanishiga sabab bo'lgan omil sifatida talqin qilish masalasi ilmiy adabiyotlarda hanuz munozarali bo'lib qolmoqda. Ayrim tadqiqotchilar ko'chmanchilarning migratsion faolligini yaylov biomassasining ko'payishi bilan kechgan isish davrlari bilan bog'laydilar [31; 32; 33]. Boshqa tadqiqotchilar esa bu jarayonni aholining degradatsiyaga uchrayotgan zonalardan siqib chiqarilishiga

olib kelgan sovish va aridizatsiya davrlari bilan izohlaydilar [27; 28; 29; 36]. Har ikki yondashuv ham ko'chmanchi jamiyatlarning ekologik sharoitlarga yuqori darajada bog'liq bo'lganini tasdiqlaydi.

Ilk temir davridan boshlab chorvachilik va dehqonchilikning integratsiyalashuvi natijasida iqlimga bog'liqlik nisbatan zaiflashgan. Markazlashgan irrigatsiya va suv resurslari ustidan nazoratga ega voha tizimlari shakllangan. Bu esa urbanizatsiya va transyevrosiyo savdo tarmoqlariga integratsiyalashuvni rag'batlantirgan. Shu bilan birga, sho'rlanish, tuproqlarning holdan toyishi va flora yo'qolishi kabi degradatsion jarayonlar saqlanib qolgan. Natijada resurslarni tejashga qaratilgan sakrallashtirilgan me'yoriy modellar shakllangan bo'lib, bu yondashuv zardushtiylik huquqi va madaniyatida ham o'z ifodasini topgan.

Shunday qilib, Markaziy Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar tarixiy dinamikasida iqlimiy, gidrologik va tektonik omillar nafaqat tabiiy-geografik fon, balki sotsioiqtisodiy va madaniy jarayonlarning faol tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lgan. Ular madaniy taraqqiyot, makoniy mobillik, xo'jalik ixtisoslashuvi va siyosiy tuzilmalar shakllanishida muhim o'rin egallagan.

XULOSA

Markaziy Osiyo tarixiy taraqqiyotini arxeoekologik nuqtayi nazardan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mintaqa jamiyatlarining rivojlanishi iqlimiy o'zgarishlar, suv resurslari, landshaft holati va mineral xomashyo bazasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Pleystotsen va golotsen davrlarida yuz bergan iqlimiy tebranishlar inson jamoalarining joylashuvi, xo'jalik shakllari, migratsiyasi va madaniy aloqalariga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Birinchidan, Markaziy Osiyo tarixi tabiatdan foydalanishning ekstensiv modellari cheklanganligini ko'rsatadi. Qadimgi davrlarda ham, keyingi tarixiy bosqichlarda ham landshaftlarning ekologik sig'imidan ortiqcha foydalanish suv resurslarining degradatsiyasi, tuproqlarning sho'rlanishi va aholining majburiy migratsiyasiga olib kelgan.

Ikkinchidan, arid zonalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqarorligi bevosita suv resurslarini boshqarish darajasiga bog'liq bo'lgan. Dastlabki irrigatsiya shakllaridan tortib murakkab voha tizimlarigacha bo'lgan tajriba iqlimiy fluktuatsiyalar sharoitida suv xavfsizligining ustuvor ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, qadimgi jamiyatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqlimiy o'zgarishlarga moslashuv xo'jalik moslashuvchanligi, makoniy mobillik va resurslardan oqilona foydalanish saqlangan taqdirdagina samarali bo'lgan. Aksincha, ishlab chiqarish va joylashuvning qat'iy fiksatsiyalangan shakllari ekologik inqirozlar oldida zaiflikni kuchaytirgan.

Nihoyat, Markaziy Osiyoning arxeoekologik tajribasi bugungi barqaror rivojlanish strategiyalari uchun ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Qadimgi jamiyatlarning ekologik moslashuv tajribasi texnologik taraqqiyot, suv xavfsizligi va tabiiy resurslardan foydalanish o'rtasidagi muvozanatni qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии. — Душанбе: Дониш, 1973. — 161 с.
2. Виноградов А.В., Мамедов Э.Д., Итина М.А., Кесь А.С. Палеогеографическая обусловленность расселения древнего человека в пустынях Средней Азии. — М., 1974. — С. 290–295.
3. Мамедов Э.Д., Батулин С.Г. Палеогидрогеологическая обстановка и древнее расселение человека в пустынях Средней Азии. — М.: Наука, 1977. — С. 176–181.
4. Долуханов П.М. Климатические колебания в аридной зоне Старого Света. — М., 1989. — 18 с.
5. Матюшин Г.Н. Экологические кризисы и их роль в смене культур каменного века. — М.: Наука, 1980. — С. 138–149.
6. Лужецкий В.Г. Определение скоростей осадконакопления на озёрах Байкал и Телецкое с использованием датировок ледниково-межледниковых стадий. — Новосибирск, 2009. — С. 372–373.
7. Suleymanov R.X., Shonazarov Sh.B. Paleoekologiya va sivilizatsiya dinamikasi. — Toshkent, 2022. — 118 b.
8. Жаков Е.Ю., Гуськов С.А., Кривоногов С.К., Кузьмин Я.В., Бурр Г.С. Особенности распределения микрофауны в голоценовых отложениях Аральского моря. — Новосибирск, 2009. — С. 212–214.
9. Батулин С.Г., Мамедов Э.Д. Стратиграфическое положение и палеогеографическое значение реликтовых и погребенных почвенных горизонтов в четвертичных отложениях Кызылкумов // Бюллетень комиссии по изучению четвертичного периода. — 1980. — № 50. — С. 108–115.
10. Прусаков Д.Б. О причине «позднего» перехода к неолиту и производящему хозяйству в Египте // История и современность. — 2005. — № 2. — С. 80–112.
11. Ларичев В.Е. Мустьерские и неолитические памятники Южной Гоби // Новосибирск, 1964. — Вып. 1. — С. 147–189.
12. Лисицына Г.Н. Орошаемое земледелие эпохи энеолита на юге Туркмении. — М., 1965. — 167 с.
13. Абрамова Т.А. Палеогеография Арало-Каспийского региона в позднем голоцене по новым палинологическим данным // Палеогеография и геоморфология Каспийского региона в плейстоцене. — М.: Наука, 1993. — С. 116–121.
14. Аванесова Н.А., Журакулова Д.М. Древнейшие кочевники Зеравшана // Материалы Международной конференции. — Самарканд, 2008. — С. 13–33.
15. Мамедов Э.Д., Трофимов Г.Н. Палеоклиматы и эволюция озер в голоцене Закаспия. — Ленинград–Таллинн: АН, 1986. — С. 212–214.
16. Марколонго Б., Моцци П. Геоморфологическая эволюция предгорной равнины восточного Копетдага в эпоху голоцена: предварительный геоархеологический обзор // АВ. — 2000. — № 7. — С. 33–40.
17. Аюбов А.Р. Этнокультурные процессы Ферганы и Согда в древности // Номаи Донишгоҳ. — 2018. — № 1(54). — С. 44–48.

18. Виноградов А.В., Мамедов Э.Д. Первобытный Лявлякан: этапы древнейшего заселения и освоения Внутренних Кызылкумов. — М.: Наука, 1975. — 285 с.
19. Арриан Флавий. Анабасис Александра / пер. с греч. и коммент. А.А. Шицко. — М.: Наука, 1978. — 432 с.
20. Квинт Курций Руф. История Александра Великого / пер. с лат. и коммент. И.Д. Кузнецова. — М.: Наука, 1983. — 356 с.
21. Гумилев Л.Н. Этносфера: История людей и история природы. — М.: Экопрос, 1993. — 544 с.
22. Кочевые империи Евразии: особенности исторической динамики / отв. ред. Б.В. Базаров, Н.Н. Крадин. — М.: Наука; Восточная литература, 2019. — 503 с.
23. Абрасов В.Н. Гетерохронность периодов повышенного увлажнения гумидной и аридной зон // Известия ВГО. — 1962. — Т. 94. — Вып. 4. — С. 325–328.
24. Пигарёв Е.М. Изменение уровня Каспийского моря и его влияние на исторические процессы на территории низовьев Волги в Средневековье // Поволжская археология. — 2022. — № 2(40). — С. 183–197.
25. Ерофеева И.В. Эпистолярное наследие казахской правящей элиты 1675–1821 года. — Алматы, 2014. — Т. I. — 692 с.
26. Масанов Н.Э. Кочевая цивилизация казахов: основы жизнедеятельности кочевничества. — Алматы: Социнвест; М.: Горизонт, 1995. — 319 с.
27. Боталов С.Г. Климатическая детерминанта в миграционных процессах кочевой цивилизации Евразии // Вестник Южно-Уральского государственного университета. — 2011. — С. 8–13.
28. Van Geel B., Renssen H., Schouten S. et al. The sharp rise of nomadism in Central Asia around 850 BC // The Holocene. — 2004. — Vol. 14. — No. 5. — P. 635–642.
29. Хазанов А.М. Кочевники и внешний мир. — 3-е изд., доп. — Алматы: Дайк-Пресс, 2002. — 604 с.
30. Khazanov A.M. Pastoral nomadic migrations and conquests. — Cambridge University Press, 2015. — Vol. 5. — P. 359–382.
31. Bokovenko N.A. Migrations of Early Nomads of the Eurasian Steppe in a Context of Climatic Changes. — London: NATO Science Series, 2004. — Vol. 42. — P. 21–33.
32. Pederson N., Davi N., Cook E., Buckley B. et al. Pluvials, droughts, the Mongol Empire, and modern Mongolia // Proceedings of the National Academy of Sciences. — 2014. — Vol. 111. — No. 12. — P. 4375–4379.
33. Di Cosmo N., Chen S., Feng H., Liu X. et al. Environmental stress and steppe nomads: Rethinking the history of the Uyghur Empire // Journal of Interdisciplinary History. — 2018. — Vol. 48. — No. 4. — P. 439–463.
34. Hessler A.E., Anchukaitis K.J., Jelsema C. et al. Past and future drought in Mongolia // Science Advances. — 2018. — Vol. 4. — No. 3. — P. 1–7.

35. Preiser-Kapeller J. The Climate of the Khagan. Observations on palaeoenvironmental factors in the history of the Avars, Bulgars and Khazars. — Mainz, 2018. — P. 31–50.
36. Kuzmina E.E. The Prehistory of the Silk Road. — Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 2008. — 240 p.
37. Bulygina O.N., Razuvaev V.N., Korshunova N.N. Changes in snow cover over Northern Eurasia in the last few decades // Environmental Research Letters. — 2009. — Vol. 4. — Article 045026. — P. 1–6.
38. Величко А.А. Палеоклиматы и оледенения в плейстоцене. — М.: Наука, 1989. — 248 с.
39. Долуханов П.М. История средиземных морей / отв. ред. А.Л. Чепалыга. — М.: Наука, 1988. — 144 с.
40. Spate M., Leipe C., Motuzaite Matuzeviciute G. Reviewing the Palaeoenvironmental Record to Better Understand Long-Term Human-Environment Interaction in Inner Asia During the Late Holocene // Frontiers in Ecology and Evolution. — 2022. — Vol. 10. — P. 1–17.
41. Tan L., Dong G., An Z., Edwards R.L., Li H., Spengler R., Cai Y., Cheng H., Lan J., Orozbaev R., Liu R., Chen J., Xu H., Chen F. Megadrought and cultural exchange along the proto-silk road // Science Bulletin. — 2021. — Vol. 66. — P. 603–611.

Назаров Х.А.

PhD., старший преподаватель кафедры «Археологии и этнологии»
Национальный университет Узбекистана
humoyunjon1992@gmail.com

КЛИМАТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И ТРАНСФОРМАЦИЯ ЛАНДШАФТА В РАЗВИТИИ ДРЕВНИХ ОБЩЕСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется влияние климатических изменений, неотектонических процессов, динамики гидрографической сети и трансформации ландшафтов на культурную адаптацию древних обществ Центральной Азии. Особое внимание уделяется экологическим условиям плейстоцена и голоцена, размещению археологических памятников, древним центрам горного дела и металлургии, формированию хозяйственно-культурных типов эпохи неолита и бронзы, а также связи политической активности кочевых обществ с палеоклиматическими факторами. В статье взаимодействие природной среды и человеческой деятельности рассматривается как важная научная категория для объяснения цивилизационных процессов Центральной Азии.

Ключевые слова: Центральная Азия, палеоэкология, голоцен, плейстоцен, аридизация, неотектоника, древние русла, неолит, бронзовый век, кочевые общества, культурная адаптация.

Nazarov Kh.A.

PhD., senior lecturer at the department of «Archaeology and Ethnology»
National University of Uzbekistan
humoyunjon1992@gmail.com

CLIMATIC FACTORS AND LANDSCAPE TRANSFORMATION IN THE DEVELOPMENT OF ANCIENT SOCIETIES OF CENTRAL ASIA

ABSTRACT

This article analyzes the impact of climate change, neotectonic processes, hydrographic dynamics and landscape transformation on the cultural adaptation of ancient societies in Central Asia. Special attention is paid to the ecological conditions of the Pleistocene and Holocene, the spatial distribution of archaeological sites, ancient mining and metallurgical centers, the formation of Neolithic and Bronze Age economic-cultural types, as well as the relationship between the political activity of nomadic societies and paleoclimatic factors. The article interprets the interaction between the natural environment and human activity as an important scientific category for understanding the civilizational processes of Central Asia.

Key words: Central Asia, paleoecology, Holocene, Pleistocene, aridization, neotectonics, ancient riverbeds, Neolithic, Bronze Age, nomadic societies, cultural adaptation.